

QO'SHIMCHA MA'LUMOT

1992 yilda "Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasini" qayta ko'rib chiqqanimizda, qo'llanmaga yana bir necha mavzularni qo'shgan edik. Har bir yangi nashrni taylorlaganda, yangi mavzularni ham yangilashda davom etmoqdamiz. Ushbu mavzularning ba'zilari kitobxonlar tomonidan talab etilgan bo'lib, ular ko'pgina muammolarni va kasalliklarni o'z ichiga olgandir. Masalan, OITS (SPID) balosi, abort asoratlari, pestitsidlar (zaharli o'g'itlar) va giyoxvandlik. Undan tashqari, "Qon bosimini qanday o'lchash kerak?" deb nomlangan mavzu ham bu bo'limdan joy oldi, chunki, bu qo'llanma qishloq tibbiyat hodimlari tomonidan ko'p ishlataladi va ularda qon bosimini o'lchash uchun asboblar ham mavjud.

SPID (OITS) (ORTTIRILGAN IMMUNITET TANQISLIGI SINDROMI)

SPID (OITS) virus orqali odamdan odamga tarqaladigan va nisbatan yaqinda paydo bo'lgan xavfli kasallikdir. Hozirgi vaqtga kelib bu virus dunyoning ko'pgina mamlakatlarida topilgan.

SPID (OITS) odam organizmining kasallikka qarshi kurashish qobiliyatini pasaytiradi. SPIDI bor odamning ich ketar, zotiljam (o'pka shamollashi, pnevmoniya), sil yoki teri rakining jiddiy turi bilan og'rib qolishi juda oson. SPIDI bor odamlar ularning organizmi kurasha olmagan kasallikdan nobud bo'ladilar.

SPID virusi qon, erkak urug'i yoki qin suyuqligi orqali bir odamdan boshqa odamga o'tadi. SPIDning yuqish yo'llari:

SPID bilan kasallangan odam bilan **himoyalanmagan** jinsiy aloqa orqali.



Begona odamlar bilan jinsiy aloqada bo'ladi-gan odamlar SPID bo'lishi mumkin.

Sterillanmagan bitta shprits yoki ignadan foydalanish natijasida (yoki har qanday kesuvchi asbob orqali).



Giyohvand yoki bitta ig-nadan foydalanuvchilarning kasal yuqtirish xavfi kattadir. mumkin.

Kasallangan ona bolasini va emizish paytida infeksiyalaydi. (688-bet)



SPID bilan og'igan ayollar homilasida har uchtasidan birida SPID virusi bor.

Qon quyish orqali.

Qon quyilishidan oldin, unda OITS yo'qligi tekshilishi kerak.



MUHIM: Sog'lomdek bo'lib ko'ringan odamdan SPID yuqtirib olishingiz mumkin. SPID virusi kirgandan so'ng kasallikning birinchi belgilari namoyon bo'lishiga qadar bir-necha oy yoki yillar o'tishi mumkin, lekin kasallangan odam jinsiy aloqa yoki igna berish orqali boshqalarga ham ushbu kasallikni yuqtirishi mumkin.

SPID kundalik qo'l berib so'rashish, odamlar bilan shunchaki birga bo'lish yoki birga ovqatlanish kabi aloqalar orqali yuqmaydi. Shuningdek, u ovqat, suv, hashorat yoki hojatxona orqali ham yuqmaydi.

Belgilari: Turli odamlarda kasallik belgilari turlicha bo'ladi. Odatta boshqa oddiy kasallik belgilari namoyon bo'ladi, ammo ular og'irroq kechadi va uzoqroq davom etadi.


Agar odamda uchtadan ortiq kasallik belgilari topilsa-yu, u kishi tez-tez kasal bo'lib tursa, unda SPID bo'lishi mumkin (lekin maxsus tekshiruvlari buni aniq ayta olmaysiz).

Hammabop Tibbiyot Qo'llanmasi 2013

- Asta sekin **vazn yo'qotish**. Bemor borgan sari ozib boradi
- 1 oydan ortiq davom etayotgan **ich ketishi**.
- 1 oydan ortiq davom etayotgan **isitma**. Ba'zan u dam to'xtab, dam qaytalanib turadi.

Shuningdek, quyidagi belgilardan biri yoki ikkitasi baravar namoyon bo'lishi mumkin:

- bir oydan ko'proq davom etayotgan yo'tal.
- og'izdagi zamburug'li infeksiya (kandidamikoz 404-bet).
- tana biror joyidagi limfa tugunlarinining shishib turishi (186-bet)
- teri toshmalar
- davo qilingani bilan o'saveradigan so'gal va yaralar, ular ayniqsa dumba va jinsiy organlarda bo'ladi.
- doimiy charchoqlik
- SPIDi bor odamlar sil (342-bet) yoki brutsellyoz (354-bet) bilan og'risha juda moyil bo'ladilar.



SPID bilan kasallangan odamlar odatda juda ozib ketadi.

Davolash:

SPIDga qarshi mahsus davo hali ham topilgani yo'q. Lekin SPID bilan kasallangan odamlar turli kasalliklarga o'zлari qarshi kurasha olma-ganliklari sababli, ular o'sha kasalliklarga qarshi davolanishlari kerak:

- ◆ Suvsizlanishga qarshi Suvni Tiklovchi Ichimlikdan bering (283-bet).
- ◆ Zamburug'larga qarshi, Ketokanazol, Flukonazol, Nistatin (672-bet) ishlating.
- ◆ So'gallarga Dixloratsetat kislota yoki Podofillin (724-betlar) davo bo'ladi.
- ◆ Isitmaga qarshi ko'proq suyuqlik, aspirin bering va kasalni sovuqroq suvda yuvintiring (167-169-betlar).
- ◆ Yo'tal zotiljamni antibiotiklar bilan davolang (315-316-betlar). Agar isitma va yo'tal uzoq davom etsa, kasalni silga tekshiring. SPID virusi bor odamlarda silning oldini olish va davolash yuzasidan maslahat oling.

- ♦ Badan qichishiga teriga qarshi antigistamin dorilar (677-bet)dan bering va har qanday infeksiyani davolang (384-bet).
- ♦ Iloji boricha yaxshi ovqatlanib sog'lom bo'lishga harakat qiling. (11-bob).
Bunga ichish, chekish yoki narkotik (giyohvand narsalar) ishlatish orqali emas, balki yetarli darajada dam olish va uxlash orqali erishing.
- ♦ Yangi chiqqan, lekin qimmat dorilar SPIDning organizmdagi tarqalish tezligini pasaytirishi mumkin, ammo ular kasallikni davolamaydi (masalan: Zidovudin, Indinavir (Kriksivan)).

SPIDi bor odamlarning alohidalab, boshqalardan ajralib qo'yishning hojati yo'q. Ularning terisi yoki nafasi infeksiyalanmagan bo'ladi.

Uydagilari, oila a'zolari va do'stlari unga yaqinlashib kelayotgan o'lim odami deb qaramasdan, balki mehribonlik ko'rsatib berishlari kerak, shunda uning qismati yengilashishi mumkin (587-bet).

SPID ning oldini olish:

- ♦ Faqat o'zingizning umr yo'ldoshingiz bilan jinsiy aloqada bo'ling.
 - ♦ Ko'p odamlar bilan jinsiy aloqada bo'ladigan fohisha yoki qonunga xilof ravishda o'ziga ukol qilib yuradigan giyohvand odamlarga qo'shilmang.
- Prezervativ OITS bilan kasallanish xavfini kamaytiradi**, ammo undan to'la saqlamaydi .
- ♦ Jinsiy aloqa orqali yuqadigan kasalliklarni vaqtida davolang. Jihozlar sterilligiga qattiq e'tibor bering. **Tibbiyot xodimlari igna yoki shpritsni xlorli ohakda yoki 20 minut davomida qaynatib sterillamasdan turib, HECH QACHON ishlatmasliklari kerak.**
 - ♦ Qonunga xilof bo'lgan dorilarni ukol qilmang.
 - ♦ Kesish, quloq teshish, igna terapiyasi (igna bilan dovlash) uchun ishlatiladigan asboblarning sterilliigiga e'tibor bering.

SPID bilan kasallanib harorati ko'tarilib turgan, ichi o'tayotgan yoki og'rig'i bor kimsalarga alohida e'tibor kerak. Siz ularni hech qanday xavfsizramasdan parvarish qilishingiz mumkin.

Lekin kasallikning tarqalishiga qarshi bir qancha choralarini ko'rish kerak:

♦ Bemorning qoni, ochiq yarasi, qon aralash ichi ketayotgan yoki qayt qilayotgan bo'lsa, chiqindilaridan virus tarqalishi mumkin.

Bularga qo'l tekkizmaslik uchun rezinali yoki plastik qo'lqoplar kiyib oling. Qo'llaringizni tez-tez yuvib turing.

♦ Qon tekkan kiyim-kechak va choyshablar ehtiyyotkorlik bilan olinishi kerak. Ularni issiq, sovunli suv bilan yuvинг yoki ustiga biroz xlor ohak sepib qo'ying.




SPIDi bor odamlar bilan hushmuomala bo'ling

TANOSIL (JINSIY) A'ZOLARIDAGI YARALAR

Jinsiy organdagi yakka, og'riqsiz yara zahm belgisi bo'lishi mumkin (439-bet). Lekin yaralarning ko'p bo'lishi, jinsiy aloqa orqali yuqadigan papillomatoz, jinsiy gerpes, shankr kabi boshqa kasalliklarning belgisi bo'lishi ham mumkin.

Papillomatoz


Papillomatoz sababchisi jinsiy aloqada yuqadigan virusdir. Kasallik nishonlari tananing boshqa joylarida paydo bo'ladi-gan so'gallarga o'xshaydi (394- bet). Lekin ular odatda ko'p bo'ladi.



Erkaklarda

Belgilari:

Kichik, oqish yoki jigar rangli usti qattiq o'simtalar. Erkak kishilarda u, asosan, erlik olatida bo'ladi. Ammo u, shuningdek moyak yoki orqa peshovda bo'lishi ham mumkin. Ayollarda esa ular qinning katta lablari yoki qin ichi yoki orqa peshov atrofida paydo bo'ladi.



Davolash:

Har bir so'gal ustiga ozgina Dixloroatsetat (sirkali) kislota yoki Podofillindan (724-bet) qo'ying. (Agar iloji bo'lsa, sog'lom terini himoy-alash maqsadida dori qilishdan avval so'gallar atrofiga vazelin yoki qo'y yog'i surkaganingiz ma'qul.) Podofillin 6 soatdan keyin yuvib tashlanishi kerak. Odatda bir necha davolash usullarini qo'llash kerak bo'ladi. So'gal-lar sekin asta tortilib yo'qolib ketadi, lekin ko'pincha yana paydo bo'ladi.

Oldini olish:

Agar erkak yoki ayolning papillomatozi bo'lsa, erkak kishi prezer-vativ ishlatishi kerak (520-bet).

Prezervativ ishlatish papillomatoz, gerpes, shankr, OITS va jinsiy aloqa orqali yuqadigan boshqa kasalliklar oldini olishga yordam beradi.


Jinsiy Gerpes

Jinsiy gerpes virus orqali tarqaladigan og'riqli teri infeksiyasidir. Jinsiy gerpes jinsiy yo'l bilan yuqadi. Jinsiy organlarda kichik qavarchiqlar paydo bo'ladi. Jinsiy gepres ba'zan jinsiy organlarni og'izga olishdan so'ng ham og'izda paydo bo'lishi mumkin. Lekin ular odatda og'izda pay-do bo'ladigan boshqa turdag'i gerpesdan farqlanadi (og'izdagi oq dog'lar, 430-bet). U jinsiy aloqa orqali yuqmaydi.

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Belgilari:

- Jinsiy organ (erlik olati va qin), orqa peshov, dumba yoki sonlarda suv tomchisi-ga o'xshaydigan va og'rib turadigan bitta yoki bir talay qavarchiqqlar paydo bo'ladi.
- Qavarchiq yorilib, kichik ochiq yaralaraga aylanadi.
- Ular qurib qora qo'tir hosil qiladi.



Gerpes yaralar isitma, og'riq, et uvishishi va chovdag'i limfa bezlarning shishishi bilan 3 haftadan ortiq davom etishi mumkin. Ayollar siyishga qiynalishi mumkin.

Barcha belgilari yo'qolib ketgandan so'ng ham virus organizmda qoladi. Bir necha hafta yoki yildan so'ng birdan yana paydo bo'lishi mumkin. Ko'pincha ular oldingi joyda paydo bo'lib, dastlabkiga nisbatan og'riq sizroq bo'ladi va tezroq tuzalib ketadi.

Davolash:

Gerpesni davolovchi dori yo'q. Zararlangan joyni toza tuting. Pufakchalar yoki yaralar bor mahalda, hatto prezervativ bilan ham jinsiy aloqada bo'lmaning.

Qo'llaringizni tez-tez yuvning va yaralarni ushlamaslikka harakat qiling. Yaralarni ushlagandan so'ng bemor ko'zlarini ishqalasa yoki qo'lini og'ziga solsa, kasallik ko'zga yoki og'izga o'tishi mumkin.


EHTIYOT BO'LING: Agar tug'ayotgan ayolning gerpes yaralari bo'lsa, uning bolasi kasallanishi mumkin. Bu juda ham xavflidir. Mabodo sizda jinsiy gerpes bo'lsa, tibbiyat xodimi yoki doyangizga bu haqida aytинг.

ESLATMA: Atsiklovir kabi ba'zi qimmat dorilar yaralarning paydo bo'lishi bilan ichilsa, og'riqni pasaytirib, ularning tuzalishini tezlashtiradi.

Shankr (yumshoq shankr) Kasalligi

Belgilari:

- jinsiy organ yoki orqa peshovdagи yumshoq, **og'riqli** yaralar
- chovda kattalashgan limfatik bezlar (bubon) kuzatilishi mumkin.



Davolash:

- 3 kun davomida kuniga 2 mahal 500 mg. dan Siprofloksatsin (432-bet) bering yoki o'rниga 7 kun 500 mg. dan Eritromitsin (636-bet) bering. **Hom'ilador va kichgina bolalar Siprofloksatsin qabul qilmasliklari kerak.**
- Shu davrning o'zida zahmga (439-bet) qarshi davolash ham yaxshidir.
- Agar limfa bezlarning shishishi kuzatilsa, ularni yorib, yiringini chiqara oladigan tibbiyot xodimiga murojaat qiling.

XATNA QILISH (JINSIY A'ZODAGI TERINI KESISH)

Ko'п xalqlarda o'gil yosh bolalar jinsiy organining uchidagi teri kestiriladi, shuningdek dunyoning ba'zi joylarida, ba'zi urf-odatlarga ko'ra qizlar ham kestiriladi. **Lekin, qizlarni kestirish qizlar sog'lig'i uchun bu o'ta xavfli va bunday kestirishlar vahshiylik belgisidir.** O'gil bolalarni kestirish, tibbiy tarafdan **majburiy** emas.


O'g'il bolalar olatining „boshini” to'sib turuvchi teri naychasi bilan birga tug'iladi. Uchidagi teshikdan siyidik chiqib turgan bo'lsa hech qanday muammo bo'lmasligi kerak. Bola 4 yashar bo'lgunga qadar olatning teri boshchasi to'la chiqib turadigan bo'lib tortilmaydi. Bu oddiy hol bo'lib kestirish shart emas. Terini kuch ishlatgan holda orqaga tortmang.

Lekin bolaning teri naychasi qizarib, shishib yoki bola og'riqsiz siya

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

olmaydigan darajada tortilib ketsa, bu oddiy hol emasdir. Uni kestirish uchun tibbiyat xodimi oldiga tez olib boring.

Xalq urf-odatlariga ko'ra sog'lom o'gil bolaning kestirilishi malakali odam orqali amalga oshiriladi. Yangi lezviyani ishlatgan holda, u erlik olatining boshchasi orqasidagi terili naychani kesib tashlaydi. Kesilgandan so'ng biroz qon chiqishi kuzatiladi. Erlik olatini qon to'xtagunga qadar 5 minut davomida toza latta yoki doka bilan ushlab turing.



Agar qon to'xtamasa, qotgan qonni toza suv bilan yuvинг va teri naychasi barmoqlaringiz bilan qon to'xtamagunga qadar qisib turing. Dorilarning keragi yo'q.

KICHIK, MUDDATIDAN OLDIN VA VAZNI OZ BO'LIB TUG'ILGAN BOLALARGA E'TIBOR

Juda kichik (2,5 kg. dan yengil) tug'ilgan bolalarga maxsus e'tibor kerak. Agar iloji bo'lsa, bolani shifoxonaga olib boring. Shifoxonada bunday bolalar odatda inkubator deb ataladigan iliq, himoyalovchi va harorati nazoratda turadigan moslamada saqlanadi. Lekin, sog'lom bo'lgan bolalarni ona doim **bag'riga bosish yo'li bilan** ham himoya qilishi va isitishi mumkin:

- ◆ Bolani yalang'och qilib, yo'rgagi bilan yoki usiz ikki ko'kragingiz orasiga oling va ust-boshlar tagiga, teringiz ustiga qo'ying. (Keng ko'yak, sviter kiyish yoki belingizni bog'lab olish yordam beradi.)
- ◆ Bola xohlagancha tez-tez emib tursin, kamida har 2 soatda bir mardadan.

- ◆ Belingizni ko'tarib (yarim o'tirgan holda) uxlang.

Bola tepaga qaragan bo'lsin.

- ◆ Bolaning yuzi va ostini har kuni yuvib turing.

- ◆ **Bola doim iliq turayotganiga(ekanligiga) e'tibor bering.** Agar havo sovuq bo'lsa, bolaga qo'shimcha ust-bosh kiydirib boshini o'rab qo'ying.

- ◆ Siz dam olayotgan yoki cho'milayotganin-gizda otasi yoki boshqa oila a'zosi bolani bag'rige bosib tursin.

- ◆ Bolani tibbiyot xodimining oldiga tez-tez olib borib turing. U barcha em-dorilarini olayotganiga e'tibor bering (273 -bet).

- ◆ Bolaga temir moddasi bo'lgan mahsulotlardan, vitaminlardan, ayniqsa, D vitaminidan (706-bet) berib turing.



QULOQ KIRI

Quloqda bir oz kir bo'lishi tabiiydir. Lekin ba'zi odamlarning qu-log'ida kir ko'p bo'ladi yoki quloq pardasining yonida tuguncha bo'lib qotib qoladi. Bu esa quloq yo'li yopilishi va odamning yaxshi eshitmasligiga olib keladi.

Davolash:

Kirni olib tashlash uchun uni iliq o'simlik yog'ining bir necha suyuq tomchilari bilan yumshatish kerak. Kasal qulog'ini tepaga qaratgan holda 15 min. yotsin. So'ng quloq ichiga iliq (issiq emas) suv quyish bilan uni yuv-ing.



Agar bu yordam bermasa, ignasi yo'q shprits bilan quloq

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

yo'liga iliq suv quying. Buni bir necha marta qaytaring yoki kir chiqqunga qadar qiling. Kasalning boshi aylansa suv quyishni to'xtating. Agar kir hali ham chiqmayotgan bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling.

JUDA SOVQOTGAN KISHIGA BERILADIGAN TEZ YORDAM

Tana, Issiqligining Yo'qolishi - Gipotermiya

Sovuq iqlimli joylarda yoki havosovub, qattiq shamol bilan yog'ingarchilik bo'lib turgan mahalda yetarli darajada issiq kiyinmagan odamlarning tana issiqligi yo'qolishi mumkin. **Bu juda xavflidir.** Muzqotib qolgan odam ko'pincha unga nima bo'layotganini sezmaydi. Uni bunga aqli yetmay qoladi, u hatto yordam so'rashni ham bilmay, nobud bo'lishi mumkin.



Belgilari:

- To'xtatib bo'lmaydigan titroq tutishi
- Sekin yoki tushunib bo'lmas darajada gapirish
- Yurayotganida qoqilaverish
- Fikr chalg'ishi
- O'zini juda toliqqa sezish


Davolash:

- ◆ Bunday odamni darhol shamol tegmaydigan, quruq va issiq joyga olib boring.
- ◆ Agar ust-boshlari ho'l bo'lsa, ularni yechib quruq kiyimlarni kiygizing. O'zini quruq ko'rpalari bilan o'rabi qo'ying.
- ◆ Uning bosh, oyoq va qo'llarini yopganingizga e'tibor bering.
- ◆ Bir nechta toshni qizitib, kuruq lattaga o'rangi so'ng ko'krak, bel yoki chov yoniga qo'ying.

OGOH BO'LING: Kasalni juda tez isitib yubormang, chunki bu yurak muammolariga va o'limga olib kelishi mumkin.

- ◆ Kasalni isitish uchun barcha zarur narsalarni qiling. Agar u bola bo'lsa, uni bag'ringizga bosib (114 - betga qarang) isiting. Yoki uni quchoqlagan holda uxlang. Agar iloji bo'lsa, yonida boshqa yana kimdir yotsin. Karavotingiz tagiga ko'mir cho'g'i solingan tog'ora yoki kichik kerosin lampalaridan qo'ying. (kuydirib yuboradigan yoki juda qizdiradigan darajasida issiq bo'lmasligi kerak)

- ◆ Kasalga yegani shakar, qand, asal, pishgan shirin mevalar yoki ularning sharbati kabi shirinliklardan ko'proq bering. Agar sizda bunday narsalar bo'lmasa, unga kraxmalli guruch, non yoki kartoshka kabi mahsulotlardan bering.



- ◆ Agar kasal nafas olmay qolsa, unda og'izdan og'izga nafas bering va bu muolajani bir soat davomida qiling (174-bet).
- ◆ Agar kasalning titrog'i to'xtasa-yu, ammo yuqorida aytilgan boshqa belgililar yo'qolmagan va u hushsiz bo'lsa, u juda jiddiy holatdadir. Uni isitisha harakat qiling, ammo u uyg'onmasa, **TEZ** tibbiy yordamga murojaat qiling.

Chaqaloq va Kasal Odamlarda Tana Haroratini Xavfli Darajada Pasayib Ketishi

Ba'zan, ayniqsa sovuq havoda chaqaloq, kasal bola yoki juda qari, kasal, quvvatsiz odam ko'p issiqlik yo'qotishi natijasida tana harorati normaldan pasayib ketishi mumkin. Yuqorida aytilgan belgilar yuz berib, kasal nobud bo'lishi mumkin. Yuqorida aytigandek qilib, kasalni isitishga harakat qiling.

Badanni Sovuq Urishi

Muzlatadigan havoda issiq kiyinmagan odamlarning qo'llari, oyoqlari, quloqlari va ba'zan betlari muzlay boshlaydi. **Sovuq urishi juda xavflidir.** Agar teri to'la muzlab qolsa (sovuq urgan bo'lsa), to'qimalar o'lib teri keyinchalik qorayib ketadi (399-bet). Shu joyni kesib tashlash kerak bo'ladi (amputatsiya).

Sovuq urishning belgilari:

- Avvalo tanani ochiq qolgan qismi uvishib va qattiq og'riydi.
- So'ng, o'sha qism muzlagan sari sezgilari yo'qoladi.
- Undan keyin esa, terining rangi o'chib va paypaslab ko'rildi qattiq bo'lib seziladi.

Sovuq urishini davo-lash:

Agar teri paypaslab ko'rildi yumsheq bo'lsa, bu oddiy sovuq urishi bo'lishi mumkin. Shu joyni issiq qilib o'rang va kasal yoki boshqa odam tanasining issiq joyga qo'yib isiting. Harakat qiling va sovuqdan iloji boricha tezroq qutilishga harakat qiling.



Ko'l va oyoqlarni bag'ringizga olib isiting.



Bet va quloqlarni o'rab qo'ying.

Og'irroq sovuq urishini davolash:

EHTIYOT BO'LING! Muolaja davomida va undan so'ng ham kasal issiq tutiladigan joyda bo'lishi kerak, uni ana shunday joyga olib kelmasdan ilgari davolashni boshlamang. Oyoq va qo'llarni isitib so'ng yana muzlagandan ko'ra ularni bir muncha vaqt sovqatgan holda qoldirgan ma'quldir. Issiq va pana joyga yetib olganingizdan so'ng:

- ◆ Katta idishni iliq (**issiq emas**) suv bilan to'ldiring, suvning iliqligi qo'lin-gizni solganingizda o'zingizni qulay his qiladigan darajada bo'lishi kerak.
- ◆ Kasal odamning muzlagan joyini iliq bo'lunga qadar shu suvga soling.
- ◆ Agar suv sovub qolsa, iliq suvdan yana qo'shing. Lekin bunda kasalning qo'l yoki oyog'ini suvdan olib turing. Esingizda tuting, bemor suv qanchalik issiqligini sezmaydi, shuning uchun siz uni osonlikcha kuydirib qo'yishingiz mumkin.
- ◆ Muzlagan joy issigan sayin qattiq og'riy boshlaydi. Kasalga Aspirin yoki Ibuprofen (649-651-betlar) bering.
- ◆ Tananing muzlagan qismi iligandan so'ng, kasal issiq o'ralib dam olishi kerak.
- ◆ Muzlagan qismni ehtiyyot qiling. Unda juda xavfli jarohat yoki kuyish (198-bet) belgilari bor yo'qligiga qarang. Tibbiy yordamga murojaat qiling. Ba'zan o'lik joylar jarrohlik yo'li bilan olib tashlanishi kerak.

LEYSHMANIOZ

Bu infeksiya, bir odamdan ikkinchi odamga kichik qum pashsha chaqishi orqali yuqadi.

Kasallik ba'zan ichki organlarning shikastlanishiga sabab bo'ladi (ichki organlar leyshmaniozi). Buni aniqlash qiyin. Uni davolash ham juda qiyin va qimmatga tushadi. Agar iloji bo'lsa, tibbiy yordamga murojaat qiling. Leyshmanioz kasalligini boshqa turlari odatda terini shikastlaydi (teri leyshmaniozi). Uni davolash osonroq.

Teri leyshmaniozining belgilari:

- ◆ Pashsha chaqqan kundan 2-8 hafta o'tgandan so'ng o'sha joy shishadi.

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

- ◆ Shishgan joy ochiq (odatda yiringli) yaraga aylanadi “yomon jarohat” deb shuni aytadilar.
- ◆ Yaralar o‘z-o‘zidan tuzalib ketishi yoki bir necha haftadan 2 yilgacha vaqt davomida tuzalishi mumkin.
- ◆ Yaralar osongina infeksiyalanadi (bakteriya tushadi).

Davolash:


- ◆ Yarani sovutilgan qaynagan suv bilan yuving.
- ◆ Yaraga 10-15 minut issiq kompress (juda issiq emas) qo‘ying.
- ◆ Buni 10 kun davomida kuniga 2 mahal qiling. Ushbu „issiqlik bilan davolash” ning o‘zi ko‘pincha tuzalish uchun yetarli bo‘ladi.
- ◆ Agar yaraga infeksiya tushganga o‘xshasa (qizarsa va og‘risa), antibiotiklar bering.

QON BOSIMINI O`LCHASH


Qon bosimini o`lhash tibbiyat xodimi uchun muhimdir. U quyidagi xollarda, ayniqsa, foydalidir:

- Homilador ayollar.
- Onalarda tug`ruqdan oldin va keyin.
- Ko`p qon yo`qotayotgani (tashqi yoki ichki qon ketish xollari).
- Shok yoki allergik shok holatidagi odamlar.
- 40 dan oshgan odamlar.
- Semiz odamlar.
- Yurak muammolari, insult, nafas olishga qiynalayotgan, tez-tez boshi og`riydigan, shishgan, qand kasali, siydk yo`llarining surunkali kasalliklari, shishgan yoki og`riqli venalari bor odamlar.
- Yuqori qon bosimi bor odamlar.
- Homiladorlikdan saqllovchi tabletkalarni ichayotgan (yoki ichishni rejalashtirayotgan) ayollar.

Qon bosimini o`lchovchi 2 xil asbob mavjud:



Ko'rsatgichli qon bosimini o'lchaydigan asbob - manometr



Simobli qon bosimini o'lchaydigan asbob - manometr

Qon bosimini o'lchash uchun:

- **Odam o`zini xotirjam tutishi kerak.** Yaqinda qilingan mashqlar, ach-chig`lanish yoki xavotirlanish qon bosimining ortishiga va noto`g`ri ma`lumot olinishiga olib keladi. Odamning xavotirlanmasligi va qo`rmasligi uchun nima qilmoqchi ekanligingizni unga tushuntiring.
- Odam qo`lining yuqori qismiga - yelkaning bilak oralig`iga asbobning yengini o`rnating. Manjetini bog'lang.
- Rezinali balonchaning **buragichini (vintini) berkiting.**
- **Bosimni** simob ustunining 200 millimetridan ortadigan qilib **ko`taring.**
- Fonendoskopni tirsakning **ichki tarafiga qo`ying.**
- Havoni asta-sekin qo`yib yuborib, qon **tomirining urishini e`tibor bilan eshititing.** Asbobning ko`rsatkichi (yoki simob darajasi) asta tusha boshlaganda yuqoridagi va pastdagи o'lchamlarga e`tibor bering. **Ikki narsaga katta ahamiyat berib, yozib qo'yishingiz kerak bo'ladi:**

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

1. Tomirining urishi asta eshitila boshlagan payti yuqoridagi o'Icham hisoblanadi. Bu asbob ichidagi bosim arteriyaning yuqori bosimi darajasiga (sistolik yoki yuqori bosimiga) tenglashganda yuz beradi. Har safar yurak qisqarib qonni arteriyalarga kuch bilan haydab chiqarganida ana shunday bosim yuzaga keladi. Normal odamning yuqori bosimi 110 dan 120 mm gacha bo`ladi.

2. Asta tomir urishini eshitgan holda, havoni chiqarishni davom ettiring. **Quyi o'Icham qon tomiri urishi pasayib yoki yo`qolib ketgan joy hisoblanadi.** Bu asbobdagi bosim arteriyaning past bosimiga (diastolik yoki pastki bosimiga) teng kelganidan yuz beradi. Ushbu bosim yurak urishlar orasida dam olayotgan paytdagi bosimiga to`g`ri keladi. U odatda 60 dan 80 mm.gacha bo`ladi.

Biror odamning qon bosimini o'Ichaganda doim ikkala yuqori va past bosimlarni ham yozib qo`ying. Katta odamning normal qon bosimi (QB) bo`lib quyidagicha qilib yozamiz:

**QB 120
80**

yoki

QB 120/80


120 yuqori (sistolik) bosim va 80 past (diastolik) bosim o'Ichamlaridir.

Tibbiyat xodimlari odamlar uchun sistolik va diastolik degan uzun va tushunarsiz so`zlarni „yuqori“ va „pastki“ bosimlar deb tushuntirgani ma`qulroqdir.



Agar qon bosimi 140/85 bo`lsa, xavotirlanishga o`rin yo`qdir. Agar 135/100 bo`lsa, **bu jiddiy yuqori qon bosimdir.** Kasal semiz bo`lsa, ozishi yoki davanishi kerak. Agar pastki bosim 100 dan oshib ketsa, qon bosimini tushirish kerak (parhez yoki dori).

Kattalar uchun **normal qon bosimi 120/80 atrofidadir**, lekin 85/50 dan 140/90 gacha bo`lgan bosim ham normal deb yuritilishi mumkin.



Agar odamning qon bosimi past yuradigan bo`lsa, buning xavotirlanadigan joyi yo`qdir. Qon bosimi normaldan past ya`ni 85/50 dan 110/70 gacha bo`lsa, bu odam uzoq yashashi va yurak muammosi yoki insult-


dan azob chekishga moyil emasligining belgisidir.

Qon bosimining birdan pastlab ketishi ham xavfli belgidir. Ayniqsa, agar u 60/40dan ham pastlab ketsa. Tibbiyat xodimi qon yo`qotayotgan yoki shok(170-bet) xavfi bor odamlardagi qon bosimining birdan pastlab ketishi hollarini kuzatishi kerak.



PESTITSID (KIMYOVİY DORI-O'G'IT)LARDAN ZAHARLANISH


Pestitsidlar ma'lum o'simlik (gerbitsid), zamburug' (fungitsid), hashoratlар (insektitsid) yoki boshqa zararkunanda hayvonlarni (masalan, kalamush) yo'q qilish uchun ishlataladigan kimyoviy zaharlardir. Oxirgi payda, pestitsidlarning noto'g'ri ishlatalishi rivojlanayotgan davlatlarning katta muammosi bo'lib qolmoqda. Ushbu xavfli kimyoviy dorilar og'ir kasalliklarga olib keladi. Shuningdek, ular „tabiiy marom” (tabiiy balans)ning buzilishiga va hosildorlikning pasayishiga sabab bo'ladi.



Pestitsidlarning ko'plari juda xavflidir.

Qishloq aholisi ularning zaharli ekanligini va ulardan saqlanish kerakligini bilmay ishlata dilar. Natijada, ular **qattiq kasal, ko'r, bepusht, falajlangan bo'lib qolishlari yoki bolalari nogiron bo'lib tug'ilishi mumkin.** Shuningdek, kimyoviy dorilar bilan noto'g'ri ishlash yoki ular ishlatalgan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, rak kasalligiga olib kelishi mumkin.

Hashorat va begona o'tlarni yo'q qiluvchi kimyoviy dorilar avvaliga hosildorlikni yuqori ko'taradi. Lekin hozirgi kunga kelib pestitsidlar bilan ishlov berilgan joylardan ular ishlatalmagan joylardagiga nisbatan kamroq hosil olinmoqda. Sababi shuki, pestitsidlar parazitlarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaydigan „foydali” qush va hashoratlarni ham o'ldiradi. Bundan tashqari, pestitsidlar ishlatalgan joylarda begona o'tlar va zararkunanda hashoratlар ularning ta'siriga chidamli bo'lib qoladi, shunga ko'ra keyingi safar pestitsidning kattaroq miqdori va zaharlirog'i




Pestitsidlar ari va chuvalchang kabi foydali hashoratlarni ham o'ldiradi

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

kerak bo'ladi. Shunday qilib, dehqon ularni bir safar ishlatganidan so'ng, pestitsidga qaram bo'lib qoladi.

Ba'zi odamlar pestitsidlar ishlataligan dalalar yonida yashaydilar. Zahar osonlik bilan ularning uy va suvlariga tushishi mumkin. Bu, ayniqsa, bolalar uchun zaharlidir, chunki uning oz miqdori ham ularga katta zarar yetkazishi mumkin.




Katta dalalar yonida yashovchi aholi pestitsidlardan zaharlanishi mumkin.

Afsuski, rivojlangan mamlakatlardagi qonunlar pestitsidlar ishlatalishini chegaralab qo'yanidan so'ng, zavodlar ularni qonunlari unchalik qat'iy bo'lмаган rivojlanayotgan mamlakatlarga sota boshladilar.

Eng zaharli pestitsidlar quyidagilardir: aldrin, dieldrin, endrin, xlordan, gertaxlor, DDT, DRT, DVSR, NSN, VXS, etilen dibromid (EDB), parakvat, paration, sariq agent (1-4D, 2-4-5T bilan), kamfexlor (toksafen), pentaxlorofen (PSP) va xlordimeform.

Pestitsid sotilayotgan idishdagi yozuvlarni yaxshilab o'qing. Kichik harfli yozuvlarga e'tibor bering, chunki katta harflar bilan yozilgani pestitsidning sotilish nomi bo'lishi mumkin.

OGOH BO'LING: Agar siz qanday bo'lmasin biror hil pestitsid ishlatajotgan bo'lsangiz, quyidagi ehtiyyot choralarini ko'ring:



- ◆ Purkash asbobini kimyoviy moddaga ehtiyyotkorlik bilan to'ldiring.
- ◆ Purkayotganingizda pestitsidni shamol olib ketadigan qilib turing.
- ◆ Butun tanangizni qoplaydigan himoyalovchi kiyim kiying.
- ◆ Ovqatlanishdan avval qo'llaringizni yuving.
- ◆ Sepib bo'lganiningizdan so'ng ust-boshingizni almashtiring va cho'miling.
- ◆ Ust-boshingizni yuving.
- ◆ Yuvindini ichiladigan suvgaga tushirmang.
- ◆ Pestitsidlар maxsus joylarda va bolalardan uzoqda ekanligiga e'tibor bering. Pestitsidlар idishini ovqat va suv uchun ishlatmang.

EHTIYOT BO'LING: Bolalar, homilador va emizikli ayollar pestitsidlardan uzoqda bo'lsin.

Pestitsidlardan zaharlanganlarni davolash:

- ◆ Agar zaharlangan kishi nafas olmayotgan bo'lsa, og'izdan og'izga nafas bering (174-bet).
- ◆ Zaharlangan kishini qayt qildirish uchun 10-bobda aytilgan ko'rsatmalarni bajaring va uning ichagidagi zaharni chiqarish uchun ko'mir kukuni (yoki tuxum oqi)dan bering. Lekin ishlatalgan pestitsid turini yoki bemorni ichiga pestitsid bilan birga benzin, kerosin yoki boshqa neft mahsulotlari tushgan-tushmaganligini bilmay turib, kasalni qayt qildirmang.
- ◆ Pestitsid tekkan ust-boshlarni yeching va badanni, pestitsid tushgan joyini yuvинг.

ABORTNING ASORATLARI

Bola yashab ketadigan darajada rivojlanmay turib, ayol homilda orligining to'xtatilishi - abort(bola oldirish) deyiladi. (Ushbu kitobda biz abort so'zini faqat reja bilan, ya'ni ataylab bola olib tashlanadigan hollarni ifodalash uchungina ishlatamiz. Rejalashtirilmagan abort, ya'ni bolaning o'z-o'zidan tushib ketishi „homila tushishi” deyiladi.)

Abort qilish yoki qilmaslik qaroriga kelish - qiyin masala bo'lishi mumkin. Bunday qiyin paytlarda, do'stona maslahat va tushunish, ko'pchilik ayollar uchun yordamdek bo'lishi mumkin. Agar abort kasalxonada yoki klinikalarda tibbiyat xodimlari tomonidan amalga oshirilsa, ko'pincha ayol uchun xavfsiz bo'ladi. Eng yaxshisi, abortni homilaning kichikligida qilgan yaxshidir.



Lekin abort uyda, xonaki yo'l bilan va tibbiyot xodimi bo'limgan odamlar tomonidan amalga oshiriladigan bo'lsa, unda ayol uchun o'ta xavfli bo'lishi mumkin. Abortlar qilish qonunga xilof bo'lgan mamlakatlarda yoki abort qildirish mushkul bo'lgan joylarda, bunday xonaki usullar, 12 dan 50 yoshgacha bo'lgan ko'pgina ayol-qizlarning o'limiga sabab bo'lmoqda.


Homiladorlikni to'xtatish maqsadida, cho'p yoki boshqa qattiq narsalarni qinga yoki bachadonga tiqish, bachadonni siqish, zamonaviy yoki shifobaxsh o'simliklardan taylorlangan dorilarni ishlatish **ko'p qon yo'qotish, infeksiyalarga va hatto o'limga ham olib kelishi mumkin.**

Abortdan keyin keladigan xavfli o'zgarishlar:

- isitma;
- qorin sohasidagi og'riq;
- ko'p qon yo'qotish

Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

Agar siz homilador bo'lgan ayolda, bunday belgilarni sezsangiz, bu abort asorati bo'lishi mumkin. Ular bolaning tushib ketganini ham bildiri-shi mumkin (508-bet). Bachadondan tashqaridagi homiladorlik (507-bet) yoki salpingit kasalligi (451- bet) kabilar ham avvalgi abort natijasi bo'lishi mumkin.



Yuqoridagi (oldingi betga qarang) muammolari bor ba'zi ayollar tibbiy yordam olish uchun keladi, ammo nima bo'lganini aytishga uyaldi yoki qo'rqadi. Boshqalari esa tibbiy yordamga borishga ham uyalib, qo'rqib yurishadi. Ular kasali zo'raygunga qadar bormaydilar. Shu tariqa fursat boy berilishi, natijasi yomon bo'lishi mumkin. **Ko'p qon ketishi (odatdagidan ko'p) yoki abortdan keyingi infeksiya xavflidir. Tez tibbiy yordamga murojaat qiling! Tibbiy yordam kelgunga qadar quyidagilarni bajaring:**

- ♦ Qon ketishni to'xtatishga harakat qiling. Bolaning tushib ketganidan keyingi qon ketish xususida 19-bobda aytilgan yo'l-yo'riqlarga amal qiling. Metilergometrin ukolini oling.
- ♦ Shokka qarshi davo qiling (10-bob).
- ♦ Agar infeksiya belgilari bo'lsa, tug'ruqdan keyingi isitma mahalidagidek antibiotik bering, 19-bob.

Abortdan so'ng kasallanish va o'lish hollarining oldini olish uchun:

- ♦ Har qanday abortdan so'ng antibiotik (ampitsillin, tetratsiklin) bering. Bu infeksiya va xavfli asoratlarga uchrash ehtimolini kamaytiradi.
- ♦ **Homiladorlikning oldini oling.** Homiladorlikdan saqlanish usullarini ayol va erkak bilishi kerak (20-bob).
- ♦ Abortdan so'ng **har qanday** belgi yoki muammolari bor ayol **darhol** tibbiy yordamga murojaat qilishi kerak.
- ♦ Qishlog'ingizni yoki mahallangizni rahmdilroq va xushli joy qilishga jon kuydiring, ayniqsa ayollar va bolalarga nisbatan. Agar, jamiyat har bir odamning muhtojliklariga befarq bo'lmay, aksincha, yordam qo'lini cho'zsa, unda ayollarning abortga bo'lgan ehtyojlari ham kamayadi.
- ♦ Abortlar tibbiyot xodimlari tomonidan, toza va xavfsiz sharoitlarda amalga oshirilishi har bir ayolga imkonli, bepul yoki arzon bo'lishi kerak. Shundagina, ayollar xavfli xonaki abortlarga muhtoj bo'lmaydilar.
- ♦ Abortdan so'ng **har qanday** belgi yoki muammolari bor ayol, **darhol** tibbiy yordamga murojaat qilishi kerak. Bu qadamni qo'llab quvvatlash maqsadida, tibbiyot xodimlari bunday ayollarga rahmdil bo'lib, ularni hech qachon uyatga solmasliklari kerak.

GIYOHVANDLIK (NARKOMANIYA)

Zararli, odamni o'ziga o'rgatib, qaram qilib qo'yadigan moddalar hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Lekin, odamni o'ziga o'rgatib oluvchi va zararli moddalardan spirtli ichimliklar va tamaki ko'p mamlakatlarda ruxsat etilgan. Ular insoniyat sog'lig'ini yomonlashtirib har yili millionlab aholining hayotiga zomin bo'layapti. Spirtli ichimliklarni ortiqcha iste'mol qilish dunyoda qanchadan-qancha odamlar, oilalar boshiga katta balo bo'lib, ko'pgina ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Sigaret chekish yaqin yillargacha rivojlangan mamlakatlardagi ko'p o'limlarning asosiy sababchisi edi, hozirgi kunga kelib esa bu muammo rivojlanayottan mamlakatlarda yana ham keskinlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi odamlarning


Hammabop Tibbiyat Qo'llanmasi 2013

ko'pchiligi chekmay qo'yanligi uchun zararli va odamni o'ziga o'rgatib oluvchi tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar o'z kuchlarini boshqa mamlakatlarga qaratganlar.

Tamaki va spirtli ichimliklar bilan bog'liq sog'liq muammolari haqida 276-279 betlardan bilib olishingiz mumkin.

Tamaki va spirtli ichimliklar bilan bir qatorda dunyoning turli burchaklaridagi odamlar noqonuniy giyohvand moddalarini ishlatmoqladilar. Buning turi ko'p, marixuana (nasha, gashish, ganja), opium (geroin, morfiy) va kokain (krek)lar shular jumlasiga kiradi.

Kambag'al odamlarning bolalari orasida tarqalib borayotgan juda zararli odat - kimyoiy dorilardan nafas olish (hidlash), ayniqsa yelim, ba'zan turli bo'yoq erituvchilar, etik moyi, benzin yoki hid chiqaruvchi boshqa moddalar ni iskash (hidlash) ham muammo bo'lib qoldi.



Shuningdek, ba'zi odamlar dorilardan kuchli og'riq qoldiruvchi, qo'zg'atuvchi va ishtahani kuchaytiruvchi kuchli dorilardan noto'g'ri foydalananadilar. Bunday "dori"lar ichilishi, ukol qilinishi, chekilishi, chaynalishi yoki hidlanishi mumkin. Turli dorilar odamning jismi va ruhiyatiga turlicha ta'sir qiladi.

Kokain ta'sirida odam qisqa vaqt mobaynida o'zini go'yo kuchga to'lgan, baxtga erishgandek his qilishi mumkin, lekin vaqt o'tgan sari u o'zini charchagan his qilib, injiq bo'lib qoladi va tushkunlikka tushadi. Ba'zi spirtli ichimliklar, opium, morfiy va geroin kabi narkotik moddalar kimsani oldin bo'shashtiradi va tinchlantiradi, lekin keyinchalik u tushkunlikka tushishi, o'zini nazorat qila olmasligi yoki hatto hushini yo'qotishi ham mumkin. Boshqa narkotik moddalar - qora dori, ko'knori, marixuana, LSD kabilalar esa odamga ta'sir qilib, hayoliy manzaralar og'ushiga soladi yoki hayolparastlikka olib keladi.

OGOH BO'LING: Tamaki, spirtli ichimliklar yoki boshqa mod-dalarning homilador ayol tarafidan ishlatalishi uning tug'ilmagan farzandiga zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, boshqalar ishlatgan ignadan foydalanish xavfli kasalliklarning tarqalishiga olib keladi. Gepatit (sariq) yoki SPID (OITS)larga qarang.

Odamlar "dorilar"ni ko'pincha turli tashvishlar, kundalik hayotdagи qiyinchiliklarni unutish uchun ishlata dilar. Ular bir boshlaganlaridan so'ng „o'rganib" qoladilar. Agar ular giyohvandlikni tashlashga harakat qilib ko'rsalar, ular rahmingizni keltiradigan holatda kasal yoki jahldor bo'lib qoladilar. Ular yana "dori" olish maqsadida ko'pincha jinoyatga qo'l uradilar, och qoladilar yoki oilalarini tashlab ketadilar. Kokain va geroinga o'xshash moddalar juda o'ziga tortuvchidir; odam ularni bir marotaba tatib ko'rgandan so'ng, ularga muhtojligi ortadi. Boshqa moddalar o'ziga keyinchalik o'rgatib oladi. O'rganib qolish juda xavfli bo'lib, sog'iqliq muammolari va o'limga olib kelishi mumkin. **Lekin mardlik, kuchli iroda va atrofdagilarning madadi bilan o'rganib qolishdan qutulish mumkin.**

O'rganib qolib, "dorisini" tashlagan odamning ahvoli, oldiniga aksari juda achinarli bo'lib, u g'alati harakatlar qiladi. Bu „chiqish" yani xumorlik kasali deb ataladi. Odam juda asabiy lashgan, tushkunlikka tushgan yoki jahli chiqqan bo'ladi. U dorisiz yashay olmayman deb o'yashi mumkin. Piyonista, geroin yoki kokain ishlatuvchilarning xumorlik kasali juda qiyin kechishi mumkin. Bunday holatda ular juda jahldor, o'zi va boshqalarni ham, jarohatlaydi. Ular maxsus klinika yordamiga muhtoj bo'lishi mumkin. Marixuanaga, sigaretaga ruji qo'ygan, komyoviy moddalarni nafasga oluvchi odamlarning shu zararli odatlarni tashlashi uchun tibbiy yordamning keragi yo'q, ammo oila va do'stlarning qo'llab quvvatlashi zarurdir.

Doriga bo'lgan qaramlik, quyidagi larga olib kelishi mumkin:

o'ziga e'tiborsizlik (befarqlik)



va oila muammolari, tajovuzkorlik va jahldorlik

Quyida narkotiklarga o'rganib qolish muammosini yechish bo'yicha bir necha maslahatlar berilgan:

- ◆ Dori ishlatalishni tashlamoqchi bo'lganlarga yordam berishga va ularni qo'llab quvvatlashga harakat qiling. Ularning ruhiy holatlari sizning ta'siringizdan emas, doriga o'rganib qolganidan ekanligini esingizda tuting.
 - ◆ Oldin "dori" qabul qilib, so'ng tashlagan odamlar bu odatni yolg'iz o'zi tashlashga urinayotgan odamlarga dalda beruvchi jamoa tuzsa yaxshi bo'lar edi.
- "Anonim Piyonistalar tashkiloti" mana shunday tashkilotlardan biridir (277-bet). Ushbu odamlar guruhi dunyoning turli burchaklaridagi piyonistalariga o'rganib qolish muammosini yechishda muvvafaqiyatli yordam berib kelmoqda.
- ◆ Oila, mакtab va tibbiyot xodimlari bolalarga tamaki, spirtli ichimliklar va boshqa narkotiklarning xavflari haqida tushuncha berishi kerak. „O'zini yaxshi his qilish”, „kattalardek sezish” yoki kattalarga o'xshashning boshqa sog'lomroq yo'llary borligini bolalarga tushuntiring.
 - ◆ Tamaki va spirtli ichimliklar televidenie, radio va gazetalarda reklama qilinadigan davlatlarda chekuvchi va ichuvchilarining soni ortmoqda.

DRAKUNKULYOZ (RISHTA)

Drakunkulez qurti, uzun va ingichka bo'lib, u odam terisi ostida yashab, to'piqda, oyoqda yoki tananing boshqa joylarida og'riqli yaralarni keltirib chiqaradi. Oq ip shaklidagi ushbu qurt, uzunlikda bir metrgacha yetishi mumkin. U asosan Afrikaning ba'zi joylarida tarqalgan.


Drakunkulyoz qurti, odamdan odamga quyidagicha o'tadi:

1.Qurti va yarasi bor odam suvgaga tushadi, shunda qurt boshini yaradan chiqarib, minglab tuxumlarini suvgaga tarqatadi.



3. Boshqa odam esa, bu suvdan ichadi. Qurting tuxumlariga ega suv burgalari, odam tanasiga tushadi.

2. Mayda suv burgalariga o'xshash xashoratlar bu tuxumlarini tanasiga ilib oladi.




4. Keyin, ba'zi tuxumlar asta qurtga aylanib, teri ostida yashaydi, lekin, boshida, odam xech narsani sezmaydi. Taxminan bir yildan so'ng, yetilgan qurt odam terisini teshib chiqadi va tuxumlarini sochadi. Shu yo'sin, yaralar ham paydo bo'ladi.

Belgilari:

- To'piqda, oyoqda, moyaklarda yoki tananing boshqa joylarida og'riqli shishlar paydo bo'lishi.
- Bir haftadan so'ng, shishgan joy yorilib ochiq yara xosil bo'ladi. Bu ko'pincha, suvda turganda yoki cho'milayotganda ro'y beradi. Ingichka ip simon qurt yaradan boshini chiqaradi.
- Agar yara ifloslansa yoki yallig'lansa, og'riq va shish kuchayadi va yurish ancha qiyinlashadi. Ba'zan, odam qoqsholga uchraydi (347-bet).


Davolanishi:

- Yarani toza saqlang. Qurtning boshi chiqquncha, yarani sovuq suvda ushlab turing.
- Qurtni ipga mahkamlang yoki ingichka cho'pga o'rang va sekin asta tortib chiqaring, har kuni oz-ozdan tortib, cho'pga o'rang. Bu jarayon bir hafta davom etishi mumkin. Qurt bir metrdan uzun bo'lishi mumkin! Uni uzbib yubormang, chunki bu bir necha infektsiyalarga olib kelishi mumkin.
- Qurtni tortib olishni yengillashtirish maqsadida, bemorga metronidazol yoki tiabendazol bering. (Dorilar qurtni o'ldirmaydi).
- Qoqsholga qarshi dori bering.
- Agar yara infeksiyalansa (og'riq kuchaysa, yara qizarsa, shishsa yoki isitma chiqsa), bemorga penitsillin yoki dikloksitsillin yoki shunga o'xshash antibiotik bering (629-bet).




Oldini olish:

- Iloji bo'lsa, toza suv iching. Agar xovuzdagi suv sug'orish uchun mo'ljallangan bo'lsa, u suvni to'g'ridan-to'g'ri ichmang. Suvni, suv burgalaridan filtrlash maqsadida, suvni mato orqali idishga quying.
- Agar xovuzga toshdan yasalgan zinalar yasalsa, odamlar oyoqlarini ho'l qilmasdan suv olishlariga imkon yaratiladi.
- Yoki xovuz ustiga quduq o'rnating. Shunda odamlar arqon va chelak yordamida o'zlariga suv oladilar.



SUV OLAYOTGANDA, DOIM OXIRGI QURUQ ZINANI ISHLATING. OYOQLARNI HECH QACHON SUVGA SOLMANG.



Agar odamlar ichishga mo'ljallangan xovuzlarda cho'milmasalar, qurt infeksiyasi tarqala olmaydi, va vaqtি kelib tabiiy yo'l bilan, siz yashaydigan tevarak-atrofdan qurt yo'q bo'lib ketadi.